

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustaxkamlash yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-6155-son Farmonini amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosi to'g'risida  
M A ' L U M O T**

T/r	Amalga oshiriladigan tadbir	Bajarish muddati	Xujjat shakli, amalga oshirish mexanizmi, kutilayotgan natija	Bajarilgan ishlar, tayyorlangan hujjat loyihasi (kimga, qachon kiritilgan, xat raqami va sanasi)
<b>III. IQTISODIYTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI</b>				
<b>3.6 Iqtisodiyot tarkibini yanada diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish, birinchi navbatda, maxalliy minerel xom ashyoni chuqur qayta ishlash bo'yicha ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali yuqori qo'shilgan qiymatli maxsulotlarni o'zlashtirish, ishlab chiqarish tannarxini va energiya sarfini kamaytirish</b>				
1.	<b>66-band.</b> <b>Suyultirilgan gazni bozor tamoyillari asosida sotish mexanizmini jadallashtirish.</b>	2021 yil 10 mart	<b>Chora-tadbirlar rejasi.</b> Bunda: suyultirilgan gaz bozorida samarali raqobat muhitini yaratish, ishlab chiqaruvchi korxonalarining quvvatlarini oshirishni rag'batlantirish; aholi va iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarining suyultirilgan gazga bo'lgan ehtiyojini qanoatlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish nazarda tutiladi.	<b>Bajarildi.</b> Topshiriqqa muvofiq, " <b>Suyultirilgan gazni bozor tamoyillari asosida sotish mexanizmini jadallashtirish</b> " bo'yicha chora-tadbirlar rejasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan. Bugungi kunda respublikadagi <b>3,7 mln</b> dan ortiq suyultirilgan gaz ta'minotiga moslashtirilgan iste'molchilarni uzluksiz gaz bilan ta'minlash uchun yaxlit tizim yaratilib, <b>376 ta</b> avto va vagon - sisternalar, <b>835 ta</b> maxsus avtotransport vositalari hamda <b>4,7 mln dona</b> maishiy gaz ballonlari orqali xizmat ko'rsatilmoqda. Shuningdek, <b>83 ta</b> gaz to'ldirish inshootlari (shu jumladan 28 ta xususiy) hamda maishiy gaz ballonlarini sinovdan o'tkazish va ta'mirlash bo'yicha <b>46 ta</b> sexlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. 2021 yilda iste'mochilarga jami <b>590,8 ming tonna</b> (o'sish sur'ati <b>113 %</b> ) (2020 yilga nisbatan <b>63,1 ming tonna ko'p</b> ) suyultirilgan gaz yetkazib berildi. <u>Tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasini amalga oshirish hamda aholini uzluksiz suyultirilgan gaz bilan ta'minlash maqsadida, qator ishlar bajarildi.</u> - suyultirilgan gaz ta'minoti sarf - xarajatlarini kamaytirish, yetkazib berish muddatlarini qisqartirish orqali moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida, <b>38 ta</b> (oylik tashish quvvati <b>4,5 ming tonna</b> ) vagon-sisternalar xarid qilinishi natijasida vagon-sisternalarining bir marotabalik aylanish davriyligi <b>65 foizga qisqartirishiga</b> hamda temir yo'l orqali tashish hajmi <b>10 foizga ortishiga</b> erishildi. Jumladan, Farg'ona vodiysi

				<p>aholisini suyultirilgan gaz bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida ishlab chiqaruvchi korxonalaridan gaz hajmini <b>100 foiz</b> temir yo'l orqali tashish tizimi yo'lga qo'yildi;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- aholiga suyultirilgan gazni uzluksiz va havfsiz yetkazib berish uchun qo'shimcha <b>9 ta gaz to'ldirish inshootlari</b> hamda <b>10 ta maishiy gaz ballonlarini ta'mirlash va sinovdan o'tkazish sexlari</b> ishga tushirildi. Tizimda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish va gaz to'ldirish inshootlarini modernizatsiya qilish natijasida oylik gaz tarqatish quvvati <b>9,8 ming tonnaga</b> oshirildi;</li> <li>- texnologik yo'qotishlar jarayonidagi qiymati <b>8,1 mlrd so'mlik 7,2 ming tonna</b> suyultirilgan gaz <b>iqtisod qilinib, 360 ming</b> aholi xonadonlariga qo'shimcha suyultirilgan gaz yetkazib berish imkoniyati yaratildi;</li> <li>- suyultirilgan gaz bilan ta'minlanayotgan <b>3,7 mln</b> dan ortiq iste'molchilar maxsus <b>ID-kartalar</b> bilan ta'minlandi hamda foydalanishdagi <b>4,7 mln</b> maishiy gaz ballonlarga maxsus <b>bar-kodli yorliqlar</b> biriktirilib tizim to'liq avtomatlashtirildi.</li> <li>- davlat-xususiy sherikchilik tamoyili asosida "<b>Kabus Web solutions</b>" <b>MChJ</b> (dasturchi xamkor tashkilot) bilan hamkorlikda "<b>Ye-Gaz</b>" <b>dasturi</b> ishlab chiqilib, unda barcha iste'molchilar va maishiy gaz ballonlar ro'yhati shakllantirilishi natijasida: <ul style="list-style-type: none"> <li>elektron to'lov tizimlari (Paynet, Payme, Click, Upay, Apelsin) orqali <b>kunning istalgan vaqtida to'lovlarni amalga oshirish</b>;</li> <li>maishiy gaz ballonlarni <b>onlayn rejimda nazorat qilish</b> hamda suyultirilgan gaz hajmini tizimli ravishda, belgilangan muddatlarda yetkazib berish;</li> <li>iste'molchi va dastur orasidagi masofaviy bog'lanish, to'lovlarni amalga oshirishda <b>ochiqlik</b> va <b>shaffoflik</b> ta'minlanib, <b>inson omilisiz masofadan jarayonlarni boshqarishga</b> erishildi;</li> <li>sodir etilishi ehtimoli bo'lgan <b>talon-tarojlik</b> va <b>korrupsion</b> holatlariga <b>barxam berildi</b>.</li> </ul> </li> </ul>
2.	<b>67-band.</b> <b>Tabiiy gazni yuridik shaxslarga bozor tamoyillari</b>	2021 yil 1 iyun	<b>Normativ-xuquqiy xujjat loyixasi.</b> Loyixada: tabiiy gazni bozor tamoyillari	<b>Bajarildi.</b> Gaz ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish, aholi va strategik iste'molchilarni, bozor mexanizmlarini joriy qilish orqali uzluksiz tabiiy gaz bilan ta'minlash maqsadida, xorijiy davlatlarning gaz ta'minoti tizimidagi

	<p><b>asosida sotish mexanizmini ishlab chiqish.</b></p>		<p>asosida ulgurji sotish bosqichlari va muddatlarini aniqlash. bozor tamoyillari asosida savdolarida ishtirok etadigan tabiiy gaz iste'molchilarini "Tabiiy gaz nazorati va xisobining avtomatlashti-rilgan tizimi"ga ulangan tabiiy gaz oqimini avtomatik ravishda to'xtatuvchi moslamalar bilan jixozlash; Energetika vazirligi, "O'ztransgaz" AJ, "Xududgazta'minot" AJ o'rtasida tabiiy gaz iste'moli yuzasidan elektron ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish nazarda tutiladi.</p>	<p>davlat-xususiy sheriklik loyihalari tajribasi o'rganib chiqilib, Jamiyatning 2020 yil 9 martdagi 01-08-74/1400-son va 2021 yil 28 maydagi 02-08-139/3928-son xatlari asosida Energetika vazirligiga taklif kiritilgan. Shuningdek, <b>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 apreldagi 196-son qarori</b> bilan Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 15 dekabrda "Zaxiralari qazib olinishi murakkab hisoblangan konlarga neft qazib olishni ko'paytirish va uglevodorod xomashyosini qayta ishlash hajmlarini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1002-son qarori 4-bandi 5-xatboshiga o'zgartirish kiritilib, unga ko'ra, tabiiy gazni iste'molchilarga, shu jumladan eksportga qo'shma korxonalar tomonidan bozor narxlarida, tegishligi bo'yicha tabiiy gazni tayyorlash, qayta ishlash va yetkazib berish xizmatlari bo'yicha "O'zbekneftgaz" AJ, "O'ztransgaz" AJ va "Hududgazta'minot" AJ bilan imzolangan shartnomalar doirasida amalga oshirilishi belgilandi.</p>
3.	<p><b>68-band. "Tabiiy gaz nazorati va xisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish" loyixasini amalga oshirish</b></p>	<p>2021 yil 1 oktabr  2022 yil 1 noyabrga qadar uzaytirilgan</p>	<p><b>Amaliy chora-tadbirlar.</b> Bunda: Gaz yetkazib berishda xisob-kitoblarni "online" tartibda oldindan to'lov tizimiga o'tkazish, debitor qarzdorlikni qisqartirish; "PrePay" tizimini joriy etish xamda tabiiy gaz yetkazib berish va qabul qilish jarayonida tafavut yo'qotishlarning oldini olish nazarda tutiladi.</p>	<p><b>Bajarilmoqda.</b> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 sentyabrdagi <b>"Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish" loyixasini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida</b>gi PQ-4840-son qarori muvofiq elektron gaz hisoblash uskuna (EGHU)larini o'rnatish ishlariga respublika bo'yicha jami <b>1,7 ming</b> payvandchi brigadalar faoliyati tashkillashtirildi hamda bugungi kunda jami <b>3,0 mln dona</b> elektron gaz hisoblash uskunalarini hududlarga yetkazib berilib, <b>2,9 mlndan ortig'i</b> aholi honadonlariga o'rnatildi hamda respublika iste'molchilarining <b>81 foizidan</b> ortig'i ASKUG tizimi bilan to'liq qamrab olinib, TMM (Terranova Advanced Metering Management) ma'lumotlar bazasi ro'yxatidan o'tkazildi va "Billing dasturiga integratsiya qilinib, masofadan onlayn tarzda nazorat qilish imkoniyati yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda barcha aholi iste'molchilariga bosqichma-bosqich o'rnatilayotgan zamonaviy EGHUlarini to'g'ridan-to'g'ri "PrePay" tizimiga ulanishi ta'minlanmoqda. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining <b>"Tabiiy gaz nazorati va hisobini avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish" loyhasining texnik</b></p>

			<p><b>iqtisodiy asoslanishini tadiqlash to‘g‘risida”</b> 2021 yil 30 martdagi 168-son va <b>“Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish”</b> loyihasini moliyalashtirishga <b>“Intesa San Paola”</b> bankining kreditini Italiyaning <b>“SACE”</b> davlat eksport-kredit agentligining sug‘urta qoplamasi ostida jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 14 iyuldagi 447-son qarorlari qabul qilindi.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda <b>“O‘zbekiston Respublikasining 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”</b>gi PQ-72-son qarori 4-ilovasi 9-bandiga muvofiq, <b>“Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish”</b> loyihasini amalga oshirish <b>muddati 2022 yil oktabr</b> etib belgilandi.</p>
--	--	--	---